



YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILARNING SOLIQ MA'MURCHILIGINI AMALGA OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI

Muzaffarov Dilshod Shuxratovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0004-4637-7062

ciesa0010@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada yirik soliq to'lovchilarning soliq ma'murchiligini amalga oshirishning xorij tajribasi tahlil qilingan bo'lib, bu tahlillar natijasida O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligini takomillashtirish masalalari, yirik soliq to'lovchilarning soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq, byudjet siyosati, byudjet, soliq ma'murchiligi, yirik soliq to'lovchilar, xorij tajribasi, soliq salohiyati, soliq yuki, soliq stavkasi, soliq imtiyozlari.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ВНЕДРЕНИЯ НАЛОГОВОГО АДМИНИСТРИРОВАНИЯ ДЛЯ КРУПНЫХ НАЛОГОПЛАТЕЛЬЩИКОВ

Музаффаров Дилшод Шухратович

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье проанализирован зарубежный опыт внедрения налогового администрирования для крупных налогоплательщиков, в результате которого разработаны предложения и рекомендации по вопросам совершенствования налогового законодательства Республики Узбекистан, а также по дальнейшему совершенствованию налогового администрирования для крупных налогоплательщиков.

Ключевые слова: налог, бюджетная политика, бюджет, налоговое администрирование, крупные налогоплательщики, зарубежный опыт, налоговый потенциал, налоговая нагрузка, налоговая ставка, налоговые льготы.

FOREIGN EXPERIENCE IN IMPLEMENTING TAX ADMINISTRATION OF LARGE TAXPAYERS

Muzaffarov Dilshod Shukhratovich

Tashkent State University of Economics

Abstract. This article analyzes foreign experience in implementing the tax administration of large taxpayers, and as a result of this analysis, issues of improving the tax legislation of the Republic of Uzbekistan, proposals, and recommendations for further improving the tax administration of large taxpayers were developed.

Keywords: tax, budget policy, budget, tax administration, large taxpayers, foreign experience, tax potential, tax burden, tax rate, tax benefits.

Kirish.

Soliq to'lovchilarni turli xil xususiyatlariga ko'ra, toifalarga ajratish, ularning bu xususiyatlarini ijtimoiy-iqtisodiy nufuzi jihatidan yondashgan holda ularga nisbatan alohida soliq rejimlariga asoslangan ma'murchilikni qo'llash tajribasi dunyo mamlakatlarida anchayin takomillashib bormoqda. Bunday yondashuvlarning asosiy o'zagiga qaraydigan bo'lsak, bir tomondan soliq to'lovchilarning faoliyatini davlatning moliyaviy instrumentlaridan samarali foydalanish asnosida davlatning moliya siyosatini soddalashtirishga qaratilgan bo'lsa, boshqa tomondan har qaysi davlatning bosh fiskal masalasi bo'lgan davlat byudjeti daromadlarini qulay va maksimal darajada shakllantirishga qaratilgan siyosatning samaradorligiga erishishdan iborat bo'ladi. Bu esa, yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiruvchi korxonalarni aniqlash, ularning faoliyatini soliqlar vositada optimal boshqarish masalalarini rivojlantirish borishni taqozo etadi.

Adabiyotlar sharhi.

Yirik soliq to'lovchilar soliq ma'murchiligini takomillashtirish yuzasidan bir qancha olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ushbu mavzu keng miqyosdagi dolzarb tadqiqot yo'nalishi sifatida o'rganilib kelinmoqda.

Jumladan, avstraliyalik olimlar Akhand va Grob tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlarda yirik soliq to'lovchilarni boshqaruvini maxsus bo'linmalar tomonidan nazorat qilish tizimini joriy etishda erishilgan yutuqlar va kamchiliklar tadqiq qilingan. Ahmed tadqiqotida yirik soliq to'lovchilar soliq ma'muriyatchiligiga oid Pokiston tajribasi keltirilgan.

Rossiyalik olimlardan Yunak tadqiqotlarida yirik soliq to'lovchi tushunchasini belgilovchi normalar, yuridik shaxslarni belgilangan soliq to'lovchilar toifasiga tasniflash mezonlari, soliq nazorati va hisobining o'ziga xos xususiyatlari, qonunlar bilan belgilanishi lozimligi asoslagan. Sitnikova Rossiya Federatsiyasi misolida konsolidatsiyalashgan soliq to'lovchini soliqqa tortish bo'yicha amaliyotidagi kamchiliklarni aniqlagan.

Pepelyaev (2010) tadqiqotlarida soliq organlari faoliyatidagi huquqiy va funksional kamchiliklarga baho berilgan. Shu bilan birga, yirik soliq to'lovchilarning soliq ma'muriyatchiligi oid tadqiqotlar kengayib, Karataev (2011), Aytxojina (2011), Belugina (2015) kabi tadqiqotchilar yirik soliq to'lovchilarning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq qilgan. Goncharenko tadqiqotlarida yirik soliq to'lovchilarning transfer narxlardan foydalanish muammolarini tadqiq qilgan, Novosyolov va Korolevalar soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan alohida tuzilmasini joriy etilishining muhimligini ilmiy asoslagan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usuldan foydalanilib, soliq imtiyozlariga doir ma'lumotlar va ularni tahlillar amalga oshirilib ilmiy xulosalar berildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Iqtisodiyotning samaradorligini oshirishda, mamlakatda yirik soliq to'lovchilarni soliqqa tortish oqali iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash, uning ko'lamini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq nazorati tadbirlari natijalari:

2024-yilning 12 oyi davomida 771 ta subyektda kameral soliq tekshiruvlari o'tkazilib (o'tgan yil mos davrida 327 ta 2 724,5 mlrd.so'm), 3 386,4 mlrd.so'm qo'shimcha soliqlar hisoblangan. Shuningdek, dekabr oyida 101 ta subyektda kameral soliq tekshiruvlari o'tkazilib (o'tgan yil mos davrida 20 ta 17,9 mlrd.so'm), 131,6 mlrd.so'm qo'shimcha soliqlar hisoblangan. 2024-yilning 12 oyi davomida 119 ta subyektda sayyor soliq tekshiruvi o'tkazilib (o'tgan yil mos davrida 39 ta), natijada 2 304,6 mlrd.so'mlik tovar moddiy boyliklar tafovuti (kamomad,

ortiqcha) aniqlangan. Sayyor soliq tekshiruvi natijasida 513,1 mlrd.so'm soliq va moliyaviy jarimalar hisoblangan. Bundan tashqari, dekabr oyida 8 ta subyektda sayyor soliq tekshiruvi o'tkazilgan (o'tgan yil mos davrida 3 ta), natijada 3,8 mlrd.so'mlik mahsulotlar kamomadi aniqlangan. 2024-yilning 12 oyi davomida 195 ta soliq auditi va jinoyat ishlari bo'yicha taftish tadbirlari tashkil etilib (o'tgan yil mos davrida 217 ta 1051,7 mlrd.so'm), 1004,5 mlrd.so'm qo'shimcha soliq hisoblangan. Jumladan, dekabr oyida 12 ta soliq auditi tadbirlari tashkil etilib (o'tgan yil mos davrida 32 ta 59,2 mlrd.so'm), 130,7 mlrd.so'm qo'shimcha soliq hisoblangan.

O'ta yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq nazorati tadbirlari natijalari:

2024-yil davomida 59 ta subyektda kameral soliq tekshiruvlari o'tkazilib (o'tgan yil mos davrida 70 ta 1 581,6 mlrd.so'm - asosiy qismi "O'ZTRANSGAZ" hamda "OKMK" hissasiga to'g'ri keladi), 359,7 mlrd.so'mlik soliq hisobotlariga tuzatishlar kiritish haqida talabnomalar yuborilgan. Jumladan, dekabr oyida 6 ta subyektda kameral soliq tekshiruvlari o'tkazilib 75,7 mlrd.so'mlik soliq hisobotlariga tuzatishlar kiritish haqida talabnomalar yuborilgan. 2024-yilning 12 oyi davomida 9 ta subyektda sayyor soliq tekshiruvi o'tkazilib (o'tgan yil mos davrida 7 ta), natijada 54,1 mlrd.so'mlik mahsulotlar kamomadi aniqlangan. Sayyor soliq tekshiruvi natijasida 17,4 mlrd.so'm soliq va moliyaviy jarimalar hisoblangan. Joriy yilning dekabr oyida o'ta yirik soliq to'lovchilarda sayyor soliq tekshiruvi o'tkazilmagan va mahsulotlar kamomadi va ortiqchaligi holatlari aniqlanmagan. 2024-yil 12 oy davomida 59 ta soliq auditi tadbirlari tashkil etilib (o'tgan yil mos davrida 71 ta 621,8 mlrd.so'm), 2 249,9 mlrd.so'm qo'shimcha soliq hisoblangan. Shunigdek, dekabr oyida 8 ta soliq auditi tadbirlari tashkil etilib (o'tgan yil mos davrida 9 ta 32,2 mlrd.so'm), 1 830,5 mlrd.so'm qo'shimcha soliq hisoblangan.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha 2024-yilning yanvar-sentabr oylari davomida nol darajali stavka qo'llanilishi hamda xarid qilingan tovar (ish, xizmat)larni hisobga olish natijasida hosil bo'lgan 19 641,6 mlrd.so'm ortiqcha summalarni qaytarish bo'yicha jami 1 822 ta ariza kelib tushgan bo'lib, 624 tasi bo'yicha 10 099,2 mlrd.so'mga Moliya vazirligiga ortiqcha summalarni qaytarish uchun xulosalar yuborildi. 1 198 ta holatda kamchiliklar aniqlanganligi sababli arizalar qayta ko'rib chiqish uchun soliq to'lovchiga qaytarildi. Shu jumladan, 2024-yilning III choragi davomida nol darajali stavka qo'llanilishi hamda xarid qilingan tovar(ish, xizmat)larni hisobga olish natijasida hosil bo'lgan 4 428,8 mlrd.so'm ortiqcha summalarni qaytarish bo'yicha jami 218 ta ariza kelib tushgan bo'lib, 94 tasi bo'yicha 2 706,9 mlrd.so'mga Moliya vazirligiga ortiqcha summalarni qaytarish uchun xulosalar yuborildi. 124 ta holatda kamchiliklar aniqlanganligi sababli arizalar qayta ko'rib chiqish uchun soliq to'lovchiga qaytarildi. 2024-yilning yanvar-sentabr oylari davomida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha o'tkazilgan tahlillar natijasida 101 ta holatda 1 176,9 mlrd.so'mga qayta hisobotlar olinib, mablag'lar to'liq undirildi.

Xususan, bo'lim xodimlari tomonidan o'tkazilgan tahlillar natijasida 2024-yilning sentabr oyida "Sanoat Energetika Guruhi" MCHJ QKdan 52,6 mlrd.so'mga (QQSga), "ANGREN PIPE PLANT" MCHJdan 2,1 mlrd.so'm va "UZGASTRAD" AJdan 33 mlrd.so'mga (aksiz solig'i) aniqlashtirilgan hisobotlar olinib, hisoblangan soliqlar undirilishi ta'minlangan. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha 2024-yilning yanvar-dekabr oylari davomida nol darajali stavka qo'llanilishi hamda xarid qilingan tovar (ish, xizmat)larni hisobga olish natijasida hosil bo'lgan 23 898,9 mlrd.so'm ortiqcha summalarni qaytarish bo'yicha jami 2 019 ta ariza kelib tushgan bo'lib, 716 tasi bo'yicha 12 570,9 mlrd.so'mga Moliya vazirligiga ortiqcha summalarni qaytarish uchun xulosalar yuborildi. 1 299 ta holatda kamchiliklar aniqlanganligi sababli arizalar qayta ko'rib chiqish uchun soliq to'lovchiga qaytarildi. Shu jumladan, 2024-yilning IV choragi davomida nol darajali stavka qo'llanilishi hamda xarid qilingan tovar(ish, xizmat)larni hisobga olish natijasida hosil bo'lgan 4 257,2 mlrd.so'm ortiqcha summalarni qaytarish bo'yicha jami 197 ta ariza kelib tushgan bo'lib, 90 tasi bo'yicha 2 413,7 mlrd.so'mga Moliya vazirligiga ortiqcha summalarni qaytarish uchun xulosalar yuborildi. 103 ta holatda kamchiliklar aniqlanganligi sababli arizalar qayta ko'rib chiqish uchun soliq to'lovchiga qaytarildi. 2024-yilning yanvar-dekabr oylari davomida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha o'tkazilgan tahlillar

natijasida 135 ta holatda 1 325,6 mlrd.so'mga qayta hisobotlar olinib, mablag'lar to'liq undirildi. Xususan, bo'lim xodimlari tomonidan o'tkazilgan tahlillar natijasida 2024-yilning dekabr oyida "Temiryo'linfratuzilma" MChJdan 89 mlrd.so'mga (QQSga), "Temiryo'linfratuzilma" AJdan 42,2 mlrd.so'm va "Enter Engineering pte.ltd mto" DMdan 39,6 mlrd.so'mga (QQSga) aniqlashtirilgan hisobotlar olinib, hisoblangan soliqlar undirilishi ta'minlangan.

Yirik soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish borasida yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiruvchi yuridik shaxslarni aniqlash mezonlari qayta ko'rib chiqilib, Adliya vazirligida 2024-yil 1-iyulda 3172-3-son bilan ro'yxatga olindi hamda DSQ buyruqlari bilan jami 957 ta (shundan 60 tasi elektron tijorat asosida faoliyatini amalga oshirayotgan chet el yuridik shaxslari hamda holati nafaol (yakuniy va bankrotlik asosida tugatilgan va boshqa korxona tarkibiga qo'shilganlar) bo'lganlar 56 ta) yirik soliq to'lovchilar tarkibi qayta tasdiqlandi. Mazkur yirik soliq to'lovchilarning 691 nafariga Yirik soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish bo'limi tomonidan kuratorlik asosida xizmatlar ko'rsatilmoqda. Bo'limga 2024-yilning yakuni bo'yicha jami 13966,1 mlrd.so'm soliq tushumlari rejasi tasdiqlangan bo'lib, 13 225,0 mlrd.so'mga yoki 95 foizga bajarilishi ta'minlandi. Bundan tashqari, yanvar-dekabr oylarida belgilangan prognoz ijrosini ta'minlash maqsadida yirik soliq to'lovchilarga biriktirilgan mas'ul hodimlar tomonidan korxonalar bilan hamkorlikda tegishli ishlar amalga oshirildi. Bo'lim tomonidan budjetga qo'shimcha mablag'larni jalb qilish hamda yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqlar bazasini kengaytirish maqsadida korxonalar soliq hisobotlari muntazam ravishda tahlil qilinib, 2024-yilning IV choragi davomida o'tkazilgan tahlillar natijasida 285,6 mlrd.so'mga qayta hisobotlar olinib, mablag'lar to'liq undirilishiga erishildi. Xususan, oktabr-dekabr oylarida, dastlabki tahlil natijalariga asosan yirik soliq to'lovchilardan 150,5 mlrd.so'm soliqlar qo'shimcha aniqlanib, bartaraf etilishi yoki asoslantiruvchi hujjatlarni taqdim etilishi yuzasidan xabarnomalar jo'natildi. Shu bilan bir qatorda joriy yilning IV choragida Soliq qo'mitasining tegishli xodimlari bilan hamkorlikda davlat ulushi mavjud bo'lgan 53 ta yirik soliq to'lovchi korxonalarning 2023-yil yakuni bo'yicha o'z sof foydasining 50 foizi miqdorida ajratma va davlat ulushi bo'yicha dividendlar hisoblanishi hamda budjetga undirilishi yuzasidan moliyaviy va foyda solig'i hisobotlari tahlil qilinib, ushbu korxonalarga 10-iyun kuni xabarnomalar yuborildi. Mazkur yo'nalishda tashkil etilgan ishlar natijasida hozirgi kunga qadar 3 187 358 mln.so'm budjetga undirilishi ta'minlandi.

Yirik soliq to'lovchi korxonalarga biriktirilgan mas'ul kuratorlar tomonidan korxonalar faoliyatida soliq masalalarida yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilish maqsadida telegram ijtimoiy tarmog'ida gruppalar ochilib, zarur ma'lumotlarni o'zaro tezkor almashish yo'lga qo'yilgan bo'lib, soliq to'lovchilarga tezkor va sifatli xizmat ko'rsatilib kelinmoqda. Shuningdek, oktabr-dekabr oylarida 310 tadan ortiq korxonaning tovar-transport yuk xati rasmiylashtirilishi bo'yicha savol hamda murojaatlari o'rganilib, kamchiliklar yuzasidan tushuntirish ishlari olib borildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4389-sonli qarori hamda "YST ma'murchiligi" axborot tizimini ishlab chiqish va sinov tariqasida amaliyotga joriy etish to'g'risida"gi Soliq qo'mitasining 2024-yil 25-sentabrdagi 302-son buyrug'lari bilan 2024-yilning 1-oktabridan bo'limning faoliyati samaradorligi KPI baxolash tizimi orqali amalga oshirish amaliyoti joriy etildi. Mazkur ATga jami 28 nafar soliq xodimlari biriktirilgan bo'lib, ushbu xodimlarning faoliyati 26 ta mezonlar bo'yicha belgilanadigan 100 balli samaradorlik ko'rsatkichi orqali baholanib ushbu ball tizimi orqali rag'batlantirilmoqda. AT orqali 2024-yil IV choragida bo'lim erishgan o'rtacha samaradorlik ko'rsatkichi 72 ballni (yaxshi) shundan, oktabr oyida 71 ballni, noyabr oyida 70 ballni, dekabr oyida 74 ballni tashkil etdi. AT mezonlari va ma'murchilik bo'yicha aniqlangan kamchiliklar bartarafi natijasida 2024-yilning oktabr-dekabr oylarida bo'lim xodimlari tomonidan byudjetga jami 2 929,7 mlrd. so'm (ixtiyoriy

taqdim etilgan qayta hisobotlar bilan) soliqlar qo'shimcha hisoblanishida bevosita o'z hissasini qo'shdi.

O'ta yirik soliq to'lovchilar ma'muriyatchiligi bo'yicha jami 150 ta korxona (115 ta korxona va 35 ta bank) soliq ma'muriyatchiligi amalga oshirilmoqda. Bo'lim tomonidan 2024-yilning aprel-dekabr oylari davomida 78 031,7 mlrd.so'm soliq tushumlari rejasi tasdiqlangan bo'lib, tushumlar 78 678,7 mlrd.so'mga yoki 100,8 foizga bajarildi. Jumladan, joriy yilning II choragida 16 010,7 mlrd.so'm (QQSdan tashqari) soliq tushumlari rejasi tasdiqlangan bo'lib, tushumlar 16 336,7 mlrd.so'mga yoki 102,0 foizga, III choragida 23 360 mlrd.so'm soliq tushumlari rejasi tasdiqlangan bo'lib, belgilangan reja prognozi ijrosini ta'minlash maqsadida korxonalarga biriktirilgan mas'ul hodimlar tomonidan korxonalar bilan birgalikda tegishli ishlar amalga oshirilib, tushumlar III chorak yakuniga 24 756 mlrd.so'mga yoki 105 foizga bajarildi. Bo'lim tomonidan budjetga qo'shimcha mablag'larni jalb qilish hamda o'ta yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqlar bazasini kengaytirish maqsadida korxonalar soliq hisobotlari muntazam ravishda tahlil qilinib, 2024-yilning aprel-dekabr oylari davomida o'tkazilgan tahlillar natijasida 895 mlrd.so'mga qayta hisobotlar olinib, mablag'lar to'liq undirildi. Xususan, may oyida, dastlabki tahlil natijalariga asosan 42 ta soliq to'lovchida 1 255,0 mlrd.so'm soliqlar qo'shimcha aniqlanib, bartaraf etilishi yoki asoslantiruvchi hujjatlarni taqdim etilishi yuzasidan xabarnomalar jo'natildi. Shunga ko'ra aniqlangan holatlar bo'yicha hozirgacha 10 ta korxona tomonidan 124,8 mlrd.so'mga qayta hisobotlar taqdim etildi, 1 ta korxona 536,1 mlrd.so'mga asoslantiruvchi hujjatlar taqdim etdi va 303,0 mlrd.so'mlik aniqlangan holat to'liq asoslantirilmaganligi sababli Soliq kodeksining 140-moddasi 5-bandiga asosan soliq auditi tayinlanishi yuzasidan inspeksiyaning 2024-yil 16-maydagi 34/23-27584-son xati Soliq qo'mitasiga jo'natildi. Shuningdek, iyun oyida dastlabki tahlil natijalariga asosan 35 ta soliq to'lovchida 519,6 mlrd.so'm soliqlar qo'shimcha aniqlanib, bartaraf etilishi yoki asoslantiruvchi hujjatlarni taqdim etilishi yuzasidan xabarnomalar jo'natildi. Masalan "Hududgazta'minot" AJ tomonidan 2023-yil va 2024-yil I chorak uchun taqdim qilingan soliq hisobotlari tahlil qilinganda daromadlar 473,5 mlrd.so'mga kamaytirib ko'rsatganligi, shu bilan birga xarajatlar 441,9 mlrd.so'mga oshirib ko'rsatilganligi natijasida qo'shimcha 137,8 mlrd.so'm foyda solig'i hisoblandi. Shuningdek, jamiyat tomonidan 2024-yil yanvar-mart oylari uchun taqdim qilingan aksiz solig'i hisobotida sof tushum 5 866,9 mlrd.so'm ko'rsatilgan bo'lib, jamiyatning qo'shilgan qiymat solig'i hisobotlarida esa ushbu tushumlar 5 459,5 mlrd.so'm ko'rsatilganligi sababli 48,9 mlrd.so'm qo'shilgan qiymat solig'i qo'shimcha hisoblandi. Yuqorida aniqlangan holat bo'yicha jamiyatga 2024-yil 31-may kuni 34/23-30771-sonli xabarnoma yuborilib, 71,3 mlrd.so'mga qayta hisobotlar olinishi ta'minlandi. Shu bilan bir qatorda joriy yilning iyul oyida dastlabki tahlil natijalariga asosan 256 mlrd.so'mga qayta hisobotlar olinib, mablag'lar to'liq undirildi. Masalan, "Navoiyuran" DK 2024 yil birinchi yarim yillik uchun taqdim etilgan iqtisodiy ko'rsatkichlar va budjetga kutilayotgan tushumlar to'g'risidagi ma'lumotga asosan, ushbu davrda daromadlar 4 670 mlrd.so'mni va xarajatlar 2 530 mlrd.so'mni tashkil etishi tasdiqlangan. Biroq, joriy yil II chorak uchun taqdim etilgan foyda solig'i hisobotida xarajatlar 2 819 mlrd.so'm qilib ko'rsatilgan bo'lib, soliq hisobotidagi xarajatlar tasdiqlangan 289 mlrd.so'mga yoki 11 foizga oshirib ko'rsatilganligi natijasida soliq bazasi 159 mlrd.so'mga kamaygan. Korxona tomonidan hisoblanishi kutilayotgan foyda solig'i kamayishi yuzasidan aniqlik kiritish bo'yicha Inspeksiyaning 2024-yil 23-iyuldagi 34/23-41854-sonli xabarnomasi jo'natildi. Shunga asosan, korxona tomonidan aniqlashtirilgan foyda solig'i hisoboti taqdim etilib, budjetga qo'shimcha 104 mlrd.so'm hisoblanishi ta'minlandi. Shuningdek, 2024-yil birinchi yarim yillik uchun taqdim etilgan foyda solig'i hisobotida aniqlangan 100 mlrd.so'm tafovut bo'yicha "OKMK" AJga Inspeksiyaning 2024-yil 25-iyuldagi 34/23-42348-son xabarnomasi jo'natildi. Xabarnomada aniqlangan tafovutlar bartaraf etilib, korxona tomonidan 90 mlrd.so'mga aniqlashtirilgan hisobot taqdim etildi.

Soliq qo'mitasining tegishli xodimlari bilan hamkorlikda davlat ulushi mavjud bo'lgan 62 ta o'ta yirik soliq to'lovchi korxonaning 2023-yil yakuni bo'yicha o'z sof foydasining 50 foiz

miqdorida ajratma va davlat ulushi bo'yicha dividendlar hisoblanishi hamda budjetga undirilishi yuzasidan moliyaviy va foyda solig'i hisobotlari tahlil qilinib, ushbu korxonalarga 10-iyun kuni xabarnomalar yuborildi.

Soliq qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosarining joriy yil 14-iyundagi topshirig'iga muvofiq qo'mitaning mas'ul xodimlari bilan hamkorlikda xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun tovar-transport yuk xati rasmiylashtirilisi yuzasidan onlayn seminar o'tkazildi. Xususan, iyun oyida 100 tadan ortiq korxonalarning TTY bo'yicha savol hamda murojaatlari o'rganilib, kamchiliklar yuzasidan tushuntirish ishlari olib borildi. Kuratorlar tomonidan korxonalar faoliyatida soliq masalalarida yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilish maqsadida telegram ijtimoiy tarmog'ida gruppalar ochilib, zarur ma'lumotlarni o'zaro tezkor almashish yo'lga qo'yilgan bo'lib, soliq to'lovchilarga tezkor va sifatli xizmat ko'rsatilib kelinmoqda.

Tashqi savdo operatsiyalari monitoringi bo'yicha 2024-yil davomida quyidagi yo'nalishlarda ishlar amalga oshirildi:

1. Eksport va importni tahlil qilish orqali qo'shimcha manba aniqlash yo'nalishi bo'yicha tashqi manbalardan olingan ma'lumotlarga asosan jami 1593,9 mlrd.so'm, jumladan, import qilingan xizmatlar (ishlar, royalti) uchun qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha 509,9 mlrd.so'm; norezidentlarning daromadidan soliq agenti tomonidan to'lov manbaidan ushlab qolinadigan foyda solig'i bo'yicha 1084,0 mlrd.so'm qo'shimcha manba aniqlandi.

2. Muddati o'tgan debitor qarzdorliklarni bartaraf qilish bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi:

463 ta xo'jalik yurituvchi subyektning 2 125 ta shartnomasi doirasida 2 672,0 mln.dollar bo'lgan qarzdorlikni bartaraf etilishini ta'minlash yoki hisoblangan 5, 10 va 35 foizlik 6 362,5 mlrd.so'm miqdoridagi jarimani ixtiyoriy to'lab berishlari yuzasidan talabnomalar yuborildi;

185 ta xo'jalik yurituvchi subyektning 524 ta shartnomasi doirasida yuzaga kelgan 1254,1 mln.dollar miqdoridagi muddati o'tgan debitor qarzdorlik bartaraf etildi;

27 ta xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan jami 1188,4 mln.so'm miqdoridagi jarima ixtiyoriy to'lab berildi;

Iqtisodiy sudlar tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashqi savdo shartnomalari doirasida yuzaga kelgan muddati o'tgan debitor qarzdorliklarga nisbatan 364,2 mlrd.so'm jarima qo'llash to'g'risida qaror chiqarildi.

Elektron shaklda xizmatlar ko'rsatuvchi xorijiy korxonalar faoliyatini monitoringi bo'yicha 2024-yilda quyidagi yo'nalishlarda ishlar amalga oshirildi:

Elektron xizmat ko'rsatuvchi chet el korxonalari tomonidan 2022-2023-yillar va

2024-yilning yanvar-iyun oylari davomida ko'rsatilgan elektron xizmatlar qiymati hamda taqdim qilingan QQS hisoboti solishtirilib, tahlil qilindi.

Tahlil natijalariga asosan 21 ta kompaniyaga jami 174,2 mlrd. so'm qo'shimcha soliq hisoblanib, xabarnoma yuborildi.

Shuningdek, respublika hududida QQS to'lovchi sifati ro'yxatdan o'tmasdan faoliyat yuritayotgan chet el kompaniyalari tahlil qilini, 30 ta korxonaga belgilangan taribda ro'yxatdan o'tishlari yuzasidan xabarnomalar yuborilib, 2024-yil davomida 6 ta kompaniya QQS to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tkazildi.

Bundan tashqari, Qozog'iston Respublikasi Moliya vazirligi mutaxassislari bilan elektron shaklda xizmatlar ko'rsatuvchi chet el korxonalarini soliqqa tortish masalalari yuzasidan muzokara o'tkazilib, o'zaro tajribalar almashildi.

Elektron xizmat ko'rsatuvchi chet el korxonalarining faoliyatini tartibga solinishi yuzasidan Soliq kodeksi va boshqa qonun hujjatlariga qo'shimchalar kiritish yuzasidan Soliq qo'mitasiga takliflar yuborildi.

Shuningdek, mazkur toifadagi korxonalarning soliq to'lovlari va qamrovining to'liqligini o'rganishni tashkil etish hamda natijalariga ko'ra, mazkur sohada samarali nazoratni ta'minlaydigan mexanizmlarni joriy etish bo'yicha Istiqbolli loyihalar milliy agentligiga, Raqamli iqtisodiyot vazirligiga murojaatlar yo'llandi.

Soliq qarzi 2024-yil 1-yanvar holatiga jami 985,3 mlrd.so'mni tashkil qilib,

2025-yilning 1-yanvar holatiga 1 259,1 mlrd.so'mni tashkil etdi va yil boshiga nisbatan 273,8 mlrd.so'mga oshdi. Jumladan, "Hududgazta'minot" AJning 226,6 mlrd.so'm, "Epsilon development company" MCHJning 225,3 mlrd.so'm, "O'ztransgaz" AJning 145,2 mlrd.so'm qarzdorliklari undirilmadan qoldi. Jumladan, 2024-yil davomida soliq qarzi mavjud korxonalarning shaxsiy kabinetiga soliq qarzini undirish to'g'risida 29 099 ta 61 832,3 mlrd.so'm talabnomalar yuborilib natijada 26 663 ta talabnomadan 54 745,5 mlrd.so'm soliq qarzi qisqartirildi. Yuzaga kelgan soliq qarzdorliklarini qarzdor korxonaning bankdagi milliy va valyuta hisob raqamlariga 27 804 ta holatda 2 424,9 mlrd.so'm mablag' inkasso topshiqnomasi qo'yilishi hisobiga undirildi. Soliq kodeksining 114-moddasiga asosan 570 ta korxonaning mol-mulki hisobidan majburiy undirish bo'yicha 1 170 ta 3 647,9 mlrd.so'mlik xatlov qarorlari shakllangan bo'lib qarzdor korxonalarning 468 ta noturar bino-inshoatlari hamda 730 ta avtotransport vositalari xatlandi hamda xatlov natijasida 2 350,6 mlrd.so'm soliq qarzi undirildi. Shuningdek, inspeksiya tomonidan qarzdor korxonalarning mol-mulkklariga nisbatan taqiq qo'yish to'g'risidagi qarorlariga asosan 114 334 ta taqiqlar qo'yildi. Majburiy ijro byurosiga joriy yil davomida 2 603 ta 3 442,9 mlrd.so'mlik Soliq majburiyatiga ega shaxsning mol-mulki hisobidan soliq qarzini undirish bo'yicha qarorlar yuborilgan bo'lib, shundan MIB bilan hamkorlikda samarali ishlar tashkil qilinishi natijasida 2 324 ta holatda 2 865,0 mlrd.so'm soliq qarzi undirildi. Soliq kodeksining 120-moddasiga asosan jami 8 ta korxonaning debitorlari hisobidan 123,0 mlrd.so'm undirildi. Shuningdek, 9 ta korxonaning murojaatiga asosan moliyaviy qiyinchilikka uchragani sababli, soliq qarzini bo'lib bo'lib to'lash imkoniyati berildi.

Xavfni va transfert narxlarini tahlil qilish bo'limi tomonidan korxonalar faoliyati tahlili natijalariga ko'ra kameral soliq tekshiruvi otkazish uchun 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida "Soliq xavfini kompleks boshqarish" avtomatlashtirilgan tizimi "SRM inspektor" moduliga 284 ta nomzod ro'yxatga kiritildi.

Tahlil natijasida 2023-2024 yillarda 42 ta korxona tomonidan import tovarlar qiymati bojxona qiymatidan past qiymatda olib kirilganligi aniqlandi. Farq summasi 2,4 trln.so'mni tashkil etadi. Elektr tarmoqlari korxonalari tahlili. "O'zbekiston Milliy Elektr Tarmoqlari" AJ va "Hududiy Elektr Tarmoqlari" AJ korxonalarining zarar bilan faoliyat yuritishi hamda soliq tushumlari kamayishi sabablari o'rganildi. Farmasevtika mahsulotlari ulgurji savdosi faoliyati bilan shug'ullanuvchi 82 ta yirik soliq to'lovchi korxonalarning faoliyati tahlil qilindi. Mol-mulk solig'i tahlili. Qurilishi tugallangan ob'ektlar (kvartiralar) uchun mol-mulk solig'i to'g'rixisoblanishi o'rganilganida qo'yidagilar aniqlandi:

-Mol-mulk solig'i xisoblanishi lozim bo'lgan, qiymati 28 mlrd.so'mlik 305 ta obyekt (11 ta korxonaga tegishli).

Natijada, 421 mln.so'm mol-mulk solig'i xisoblanmasdan qolayotganligi xavfi aniqlandi. Sanoat energetika guruhi. Sanoat energetika guruhi, "ERIELL" va "ENTER ENGINEERING" doimiy muassasalari faoliyati tahlil qilindi. Qazib olingan xomashyodan qayta ishlangan mahsulotlar realizatsiyasi kamaytirib ko'rsatilishi natijasida 453,9 mlrd.so'mlik (176,2-2022 yil, 277,7 mlrd.so'm-2023-yil) yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq byudjetga kam hisoblanganligi aniqlandi. Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi. 2023-yilda 1 tonna xomashyoni qayta ishlashdan olingan foyda 240 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil 5 oylik davrda xarajatlarni haqiqatdagiga nisbatan oshirib ko'rsatish natijasida 1 tonna xomashyoni qayta ishlashdan olingan foyda 50 ming.so'mga qadar tushib, haqiqiy foyda 233 mlrd.so'mga kamaytirilib, foyda solig'i 35 mlrd.so'mga kam hisoblangan. "ERIELL" va "ENTER ENGINEERING" doimiy muassasalari. Import qilingan tovarlarni bozor qiymatidan past (faktura qiymati) qiymatda o'zaro aloqador korxonalarga realizatsiya qilish natijasida "ERIELL"da 58 020,0 mln.so'm, "ENTER ENGINEERING"da 175 066,7 mln.so'm QQS budjetga hisoblanmasdan qolayotganligi ko'zatilmoqda. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumotlar raxbariyatga taqdim qilindi. "REVO CHARGE CA" MCHJ faoliyati tahlili. Korxona tomonidan

tovarlarga ustama qo'yilmasdan o'z narxida ta'sischi hisoblangan OOO "Revo Chardj Rus" (Rossiya) korxonasiga transfert narxlarida reeksport qilingan.

Natijada korxona yilni zarar bilan yakunlab foyda solig'i to'lamagan. Shunga ko'ra (ustama 14 foiz deb hisoblaganda) 194 mlrd.so'm foyda solig'i bazasi transfert narxlarni qo'llash natijasida kamaytirilgan hamda byudjetga 29,1 mlrd.so'm foyda solig'i to'lanmagan. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumotlar raxbariyatga taqdim qilindi. Transfert narxda 1,3 trln.so'mlik reeksportni amalga oshirgan "REVO CHARGE CA" MChJni transfert narxlar yuzasidan tekshirish o'tkazishga nomzod taqdim etildi. Sement zavodlar tahlili. "Bekobodsement" AJ, "Uzlogistic" MChJ QK, "O'ztransgaz" AJ, "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJlarda soliq xavfi darajasi tahlili asosida soliq tekshiruvlarini tashkil etish yuzasidan tahliliy xisob-kitoblar amalga oshirildi, natijalari bo'yicha takliflar raxbariyatga taqdim etildi.

Soliq xavfi aniqlangan 6 ta korxonaga xabarnoma jo'natgan holda aniqlangan xavflarni bartaraf etish taklif etildi. Vazirlar Maxkamasining 2017-yil 6 apreldagi 185-son qarori (3-ilova 16-band) bilan tasdiqlangan foydalanish uchun yaroqsiz dori vositalari va tibbiy buyumlarni yo'q qilish va ularni belgilangan tartibda utilizatsiyaga chiqarish bo'yicha tuzilgan komissiya tarkibini yangilash yuzasidan takliflar ishlab chiqildi. Yirik soliq to'lovchilar tomonidan rasmiylashtirilgan fakturalarning kontragent korxonalar tomonidan qabul qilinmaslik holatlari tahlil qilindi. LUKOIL OVERSEAS SUPPLY TRADING kompaniyasi mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida QQS va aksizdan ozod etilgan. Keyingi ishtirokchilar realizatsiyasi QQS va aksizga tortilishi sababli, ular tomonidan haqiqatda olingan tovar uchun fakturalarni kirim qilmaslik hamda realizatsiyada aks ettirmaslik orqali soliqdan qochish sxemasidan foydalanilganligi shubxa ostiga olinmoqda.

Iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida mahsulot tannarxining shakllanishi hisobiga soliq bazasini kengaytirish bo'limi tomonidan mamlakatda iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash yuzasidan sanoat sohasidagi korxonalarda tannarx shakllanishi hamda xarajatlar tarkibi tahlil qilindi va joyiga chiqqan holda o'rganish o'tkazilgan, jumladan:

Respublikada faoliyat olib borayotgan 6 ta issiqlik elektr stansiyalarining 2023 yildagi asosiy faoliyatdan daromadi 21 186 mlrd.so'm, tannarx xarajatlari 21 016 mlrd.so'mni, ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan daromadlar 11 871 mlrd.so'm (shundan ustavga kiritilgan ulush 4 614 mlrd.so'm), xarajatlar esa 12 237 mlrd.so'mni tashkil etgan holda 169 mlrd.so'm zarar bilan yakunlangan. "Issiqlik elektr stansiyalari" AJda 2024-yil yanvar-avgust oylarida 1 kVt elektr energiyani o'rtacha sotish narxi 598 so'm, avgust oyida 639 so'mni tashkil etib, elektr energiyani o'rtacha tannarxi 934 so'mga to'g'ri kelgan, shundan 169 so'm moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarga to'g'ri kelgan, 129 so'm moliyaviy daromadlarni inobatga olingan holda sotuv narxlari ishlab chiqarish tannarxini qoplamagan qismi 166 so'mni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yil yarim yillikda xarajatlarni oshishiga mazut sarfi (475 mlrd.so'm), kurs farqidan zararlar (2 802 mlrd.so'm) kabi omillar sabab bo'lgan. Issiqlik elektr stansiyalarida ishlab turgan eski enerblokklarda sarflanayotgan tabiiy gaz yangi o'rnatilgan bug'-gaz qurilmalariga nisbatan ikki baravar ko'p sarflanmoqda. "Navoiy issiqlik elektr stansiyasi" AJda 2023-yilda haqiqatda qilingan xarajatlar belgilangan rejadagi xarajatlarga nisbatan 708 mlrd.so'mga oshgan. Jumladan, asosiy vositalarning asosiy komponentlari, kapital qurilish ishlariga sarflari 283,5 mlrd.so'm, qurilish davom etayotgan loyihalar bo'yicha olingan bank kreditlariga hisoblangan foizlar 10,5 mlrd.so'm joriy xarajatlar sifatida hisobda aks ettirilgan. Shuningdek, qayta tashkil etish jarayonida ajratib chiqarilgan 3 ta jamiyat tomonidan haqiqatda resurslar sarflanmagan holda, qayta tashkil etish jarayonida buxgalteriya balansi nomuvofiqligi hisobidan yuzaga kelgan, nomoddiy aktiv qismida 4 469 mlrd.so'm gudvil yaratilgan va ushbu gudvil bo'yicha 2023 yilda 8,7 mlrd.so'm va 2024-yil yarim yillikda 37,1 mlrd.so'm amortizatsiya xarajatlari hisoblangan.

Xulosa va takliflar.

Yirik soliq to'lovchilarni tekshirish soliq majburiyatlarini bajarish, daromadlarni undirish, adolatli va shaffof soliq tizimini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Yirik soliq to'lovchilarning umumiy soliq tushumiga hissa qo'shishdagi ahamiyatini inobatga olgan holda, samarali ijroni ta'minlash va soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini minimallashtirish uchun tekshirish jarayonlarini doimiy ravishda takomillashtirish va kuchaytirish zarur. Ushbu taklif yirik soliq to'lovchilarni tekshirishni kuchaytirish bo'yicha asosiy chora-tadbirlarni belgilaydi.

Tekshiruv harakatlarini yuqori xavfli hududlarga va potentsial nomuvofiqliklarga yo'naltirish uchun xavfga asoslangan yondashuvni amalga oshiring. Bu soliq to'lashdan bo'yin tovlash yoki rioya qilmaslik ehtimoli yuqori bo'lgan hududlarni aniqlash uchun ma'lumotlar tahlili, ilg'or texnologiyalar va keng qamrovli xavflarni baholash modellaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bunday yondashuv soliq organlariga tekshirish resurslarini samarali va samarali taqsimlash imkonini beradi.

Soliq organlari va boshqa tegishli davlat organlari, masalan, moliya institutlari, bojxona organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlar reyestrlari o'rtasida uzluksiz ma'lumotlar almashinuvi va hamkorligiga ko'maklashish. Ushbu ma'lumot almashinuvi soliq to'lovchilarning moliyaviy faoliyati, operatsiyalari va aktivlarini yaxlit ko'rish imkonini beradi, xavflarni baholash va maqsadli tekshiruvlar uchun qimmatli tushunchalarni beradi.

Yirik transmilliy korporatsiyalar tomonidan soliq to'lashdan bo'yin tovlash va agressiv soliq rejalashtirishga qarshi kurashish uchun xalqaro soliq organlari bilan hamkorlik va axborot almashishni kuchaytirish. Soliq bilan bog'liq ma'lumotlar, shu jumladan transfer narxlar bo'yicha hujjatlar almashinuvi soliqdan qochishning mumkin bo'lgan sxemalarini aniqlashga va chegaralar bo'ylab adolatli soliqqa tortishni ta'minlashga yordam beradi.

Katta hajmdagi soliq to'lovchilar ma'lumotlarini tahlil qilish, qoidabuzarlik holatlarini aniqlash va potentsial soliq risklarini aniqlash uchun ilg'or tahliliy vositalar va texnologik yechimlardan foydalaning. Ma'lumotlarni qidirish, mashinani o'rganish va sun'iy intellekt soliq tekshiruvlarining samaradorligi va samaradorligini oshirishi mumkin, bu esa soliq organlariga talablarga javob bermaydigan xatti-harakatlarni aniqlash va zudlik bilan tegishli choralarni ko'rish imkonini beradi.

Yirik soliq to'lovchilar uchun ularning huquq va majburiyatlari, soliq tekshiruvi jarayonlari va soliq organlaridan kutilayotgan talablar bo'yicha aniq va shaffof yo'riqnomalarni taqdim etish. Soliq qonunlari, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va tekshirish tartib-qoidalarining aniq bayon etilishi soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasida hamkorlik muhitini ta'minlaydi, nizolarni kamaytiradi va ixtiyoriy rioya qilishga yordam beradi.

Yirik soliq to'lovchilarni o'tmishdagi har qanday qoidabuzarlik yoki qoidabuzarliklarni faol ravishda oshkor qilishga rag'batlantiradigan ixtiyoriy oshkor qilish dasturlarini yarating. Bunday dasturlar soliq to'lovchilarni o'zlarining soliq ishlarini to'g'rilashga, to'lanmagan soliqlarni to'lashga va jarimalar yoki huquqiy oqibatlardan qochishga undaydi. Ixtiyoriy oshkor qilish dasturlari yashirin soliq majburiyatlarini ochishga yordam beradi va umumiy soliq qonunchiligini yaxshilashga yordam beradi.

Adabiyotlar /Литература/Reference:

Kodeks (2020) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi.- 640 b.

Айтхожина Г.С. (2011) Особенности планирования выездных налоговых проверок крупнейших налогоплательщиков // Вестник Омского университета. Серия: Экономика. № 1.С. 190–192.

Белугина М.В. (2015) Налоговое администрирование крупнейших налогоплательщиков: проблемы, пути совершенствования // Инновационное развитие экономики. № 5 (29). С. 27–30.

Каратаев А.С. (2011) Налоговая политика государства в отношении крупнейших налогоплательщиков // Инновационное развитие экономики. № 2. С. 23–32.

Пепеляев С.Г. (2010) Актуальные проблемы законодательства и правоприменительной практики налогового администрирования крупнейших налогоплательщиков // Правовые проблемы налогового администрирования крупнейших налогоплательщиков. / Экономические науки. № 69. С. 153–156.